

SHO'RO HUKUMATINING TURKISTONDA TA'LIM SIYOSATI

Xalimjon To'xlibayevich Jo'rayev
Namangan dalat texnika universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası

Annotatsiya. Ushbu maqolada sho'ro hukumatining Turkistonda olib borgan ta'lim siyosati, xususan milliy maorif, madrasa va maktablarning cheklanishi hamda bosqichma-bosqich tugatilishi jarayoni yoritilgan. Mustamlakachilik siyosatining mohiyati, ateistik mafkuraning joriy etilishi, eski maktab va madrasalarning faoliyatiga berilgan salbiy baholar tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, jadidchilik harakati, yangi usul maktablarining shakllanishi va sho'ro davridagi ma'naviy-ma'rifiy siyosatning mahalliy aholiga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqola Turkiston ta'lim tizimi tarixini xolisona qayta baholash zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Turkiston, sho'ro hukmronligi, ta'lim siyosati, milliy maorif, madrasa, eski maktab, ateistik siyosat, jadidchilik, mustamlakachilik, savodxonlik.

Аннотация. В статье рассматривается политика советской власти в сфере образования в Туркестане, в особенности ограничения и постепенная ликвидация национальной системы просвещения — медресе и старых школ. Анализируются сущность колониальной политики, внедрение атеистической идеологии и негативная оценка традиционных учебных заведений на основе исторических источников. Также изучается деятельность джадидов, формирование новых методических школ и влияние культурно-просветительской политики советского периода на местное население. Автор подчеркивает необходимость объективного пересмотра истории образовательной системы Туркестана.

Ключевые слова: Туркестан, советская власть, образовательная политика, национальное просвещение, медресе, старая школа, атеистическая политика, джадидизм, колониализм, грамотность.

EDUCATIONAL POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN TURKISTAN

Abstract. This article examines the educational policy of the Soviet government in Turkestan, focusing on the restrictions and gradual elimination of the traditional national educational system, including madrasahs and old-style schools. It analyzes the features of colonial policy, the introduction of atheistic ideology, and the negative assessments given to traditional educational institutions based on historical sources. The study also explores the role of the Jadid movement, the development of new-method schools, and the impact of Soviet cultural-educational policy on the local population. The article emphasizes the need for an objective reevaluation of the history of the Turkestan education system.

Keywords: Turkestan, Soviet rule, educational policy, national education, madrasah, traditional school, atheistic ideology, Jadid movement, colonialism, literacy. O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi respublikada demokratik va insonparvar jamiyat qurishga, bozor iqtisodiyotiga o'tishga keng yo'l ochib berdi. Mustaqillik sharofati bilan O'zbek xalqining o'tmish tarixi, ma'naviy qadriyatlari, qadimiy madaniyati tiklana boshlandi.

Ma'lumki, O'zbek xalqi qariyb 150 yil davom etgan Rossiya imperiyasining mustamlakachilik hamda sho'rolar hukmronlik davrining murakkab va ziddiyatli davrini boshidan kechirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev mustamlaka davri haqida fikr bildirib, quyidagilarni bayon qilgan edi: "Xalqimiz tarixining og'ir va murakkab davri, ya'ni XX asr boshida jadid bobolarimiz Vatanimiz mustaqilligi yo'lida fidoyilik bilan kurashganlar. Bu borada ular turkiyalik ma'rifatparvarlar bilan faol hamkorlik qilganlari, bu diyorda ta'lim olib, yangi g'oya va qarashlarga ega bo'lganlarini yaxshi bilamiz."¹. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, haqli tarzda tahkidlash joizki, aynan mustaqillik davriga kelib O'zbek xalqi mahrifatining taraqqiyoti, mahnaviyati va mahnaviy qadriyatlarining tiklanishi

¹ Mirziyoev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Asarlar IV jild.-Toshkent: O'zbekiston, 2020.-B. 326-327.

masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda tahlim soxasida olib borilayotgan ishlar o'z navbatida, kelajakda mamlakatimiz taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Qadimdan o'ziga xos madaniyat rivojlangan, shaharlari taraqqiy etgan, ko'p sonli madrasa va maktablarga ega bo'lgan Turkiston o'lkasida o'ziga xos tahlim tizimi mavjud edi. Qadimgi madrasa, qorixona, maktablar haqida ham qo'lyozma arxiv xujjatlari to'ilgan. Bu o'z navbatida yosh avlodni milliy maorif tizimida ta'lim olishi - ularning o'zligini anglashga ko'mak berar edi, shuning uchun sho'ro hukumati milliy maorifni cheklash, maktab va madrasalarni vaqf yerlaridan mahrum qilish, shu yo'l bilan ularni yo'q qilish siyosatini olib bordi.

Chor Rossiyasi imperiyasining maorif sohasida boshlagan mustamlakachilik siyosatini sho'ro hukumati, mafkuraviy niqoblar yaani ateistik siyosat orqali davom ettirdi. Sho'ro hukumati milliy maorifni avval cheklash, so'ngra tugatish siyosatini amalga oshirishga harakat qildi. Sho'ro hukumatining milliy maorif sohasidagi siyosati o'z vaqtida yuqori ijobiy baholandi; maorif tarixi esa soxtalashtirilib, uning ba'zi sohalari esa umuman yoritilmadi. Turkistondagi madrasa va maktablarning ommalashishi mahalliy aholi savodxonligini oshirishga ko'maklashdi. Shunga qaramay, sho'ro hukumati birinchi kundan boshlab madrasa, maktablarning faoliyat ko'rsatishiga qarshi bo'lgan. Buning natijasida madrasa, maktablar soni yildan-yilga kamayib borgan.

XX asrning 20-yillari oxirlariga borib, ko'p asrlardan buyon O'zbek xalqi ma'naviy-madaniy hayotida muhim o'rin egallab kelgan madrasa, maktablar hamda qorixonalariga sho'ro hukumati tomonidan tazyiq ko'rsatildi, aksariyat xollarda majburan yopib qo'yildi. Madrasa, eski maktablarning sho'ro davridagi faoliyati shu vaqtga qadar to'la o'rganilmagan. Milliy maorif tizimining isloh qilinishi, ularning yangi usul maktablar va madrasalarga aylantirilishi masalalariga tegishli bo'lgan hujjatlari haligacha ilmiy muomalaga kiritilmagan. Sho'ro davridagi madaniyat tarixiga oid tarixiy asarlarda XIX-XX asrlarda madrasa va maktablar bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Lekin sho'ro davri tarixchilariga

qadimgi, mustamlakachilikdan oldingi davrni yozish mumkin emas edi. Sababi sho'rolar davrida xalqimizning maorif va madaniyat sohasidagi faktlarni haqqoniy yoritish partiya va xukumatning siyosatiga mutlaqo to'g'ri kelmas va mustamlakachilar ham xoxlamas edi. Vatanimiz tarixini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarda milliy maorif tizimi tarixini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Sho'ro hukmronligi yillarida soxtalashtirilgan milliy maorif faoliyati tarixini tarixiy hujjatlar asosida xolisona yoritib berish va baholash muhimdir.

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va undan keyin davom etgan sho'rolar imperiyasi davrlarida mahalliy xalqlarning milliy madaniyatini, dinini, madrasa hamda maktablardan iborat islom o'quv yurtlarini turli yo'llar bilan yo'q qilishga qaratilgan "madaniy inqilob" va ateistik siyosat olib borilgan. Milliy madaniyati rivojlangan maxalliy xalqning maktab va madrasalari hamda o'ziga xos ta'lim tizimi mavjud bo'lgan.

O'zbekiston milliy maorifi tarixining XX asr boshlarida o'lka mahalliy aholisi hayotida sho'ro mustamlakachiligi davri boshlanib ma'lum tizimga solingan maktab ta'lim tizimi shakllantirildi. Sho'ro hokimiyatining O'zbekistondagi madrasa, maktablarga doir sho'rolashtirish siyosati va uning o'ziga xos jihatlarini mohiyati kommunistik mafkura nuqtai nazaridan yondashilganligidan darak beradi. Musulmon maktablari va madrasalari faoliyati haqidagi ma'lumotlar, sho'ro hukumatining ularga nisbatan salbiy munosabatini yorituvchi dastlabki maqolalar Turkiston ASSRda 1918-1924 yillarda chop etilgan gazeta va jurnallarda ehlon qilingan. Ilk bor maktab va madrasalar haqida 1918 yilda "просвещение" gazetasida N.S.Likoshin maqolalari ehlon qilingan². Bu maqolalarda musulmon maktab va madrasalari haqida, ularning faoliyati to'g'risida xabar berilgan. "Наука и просвещение" deb nomlangan Turkiston ASSRning Maorif xalq komissarligi jurnalida P.Serbov tomonidan maktab va

² Лыкошин Н.С. История культуры в мусульманской школе // Просвещение. 1918. 10 сентябрь; Унинг ўзи. На пути к новой школе и жизни // Просвещение. 1918. 11 сентябрь.

madrasalar haqida bir qator maqolalar chop etilgan³. Ayni paytda ushbu maqolalarda o'lkadagi madrasa, maktablarning mahalliy aholi savodini chiqarishga ko'mak berganligi asossiz ravishda inkor etilgan.

XX asrning 20-yillarida o'zbek maorif tarixini, O'zbekistondagi milliy an'anaviy maktab, madrasalarning sho'ro tuzumi davrida mahalliy aholi xat-savodini chiqarishga bevosita ko'maklashgan. Turkistonda qadimdan o'zbek maorifi rivoj to'ganligi, madrasalardan mashhur shoir, yozuvchi, olimlar yetishib chiqqanligi, Rossiya imperiyasi hukumati davrida ham uning rivojlanib borgan.

Maktab va madrasalar sho'ro davrida sonining kamayib borgan, yuqorida ta'kidlaganimizdek sho'ro hukumatining o'zbek milliy maorifini cheklash siyosati yildan-yilga kuchaytirib borilgan. Buni biz 1925 yil O'rta Osiyoda milliy-hududiy davlat chegaralanishi o'tkazilib, fevralda O'zbekiston SSRning tashkil bo'lgani, sho'ro tuzumi mustahkamlangani tufayli sho'ro hukumati dinga qarshi ateizmni ommalashtirishga harakat qildi, jumladan, islom diniga qarshi kurashni kuchaytirdi. Musulmon maktablari va madrasalari huquqlarini turli yo'llar bilan cheklash va ularni butunlay tugatishga qaratilgan chora-tadbirlar avj oldi. Musulmon maktab va madrasalari yoshlarga faqat diniy bilimlar berganligini, bunday taa'lim sho'ro hukumatining maorif sohasidagi siyosatiga mos kelmasligini va eski maktablarning ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish zarurligi haqida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Buning uchun musulmon maktablarini sho'ro ruhida qayta qurish va sho'rolashtirishni boshlab yubordi. Bu davrda islom dini qoralanib, sho'ro hukumatining dinga qarshi siyosatini yoqlashgan. RSFSR hukumati tomonidan 1918 yil 23 yanvarda chiqarilgan "Cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida"gi dekreti e'lon qilinishi maktab va madrasalarning tugatilishini yanada tezlashtirdi. Masalan, I.M.Mo'minov ham madrasalar faoliyatini asosan salbiy tarzda tavsiflagan, baholangan. Sho'ro hukmronligi davrida O'zbekiston maorifi tarixiga bag'ishlangan qator tadqiqot olib

³ Сербов П.И. Общая характеристика начального образования в Туркестане // Наука и просвещение.- Ташкент, 1922.-№ 2.-С. 17-21;

borilgan bo'lib, ularda asosan sho'ro maktablari faoliyatiga ijobiy baholab o'tganlar. Mazkur tadqiqotlarda madrasa, maktablar faoliyati salbiy baholanib, ularning o'z vaqtida tugatilishi ijobiy voqea sifatida baholangan⁴.

Bu davrda chop etilgan ilmiy-fundamental adabiyotlarda ham masalaga asosan salbiy nuqtai nazardan yondashuv ruhi hukmron edi. Masalan, XX asrning 50-yillarida nashr etilgan "O'zbekiston SSR tarixi" kitobida: "... eski maktab domlalaridan sho'ro maktablarida foydalanib bo'lmas edi, chunki ular g'oyaviy jihatdan mos kelmas va deyarli chala savod bo'lib, kp'plari O'qishnigina bilar, lekin yoza olmas edilar",- degan soxta, tarixiy jihatdan noto'g'ri ma'lumotlar berilgan⁵. SHuningdek, sho'ro hukumati davrida milliy maorif (maktab, madrasalar)ning sho'rolashtirilish masalalari haqida ham mahlumotlar berilgan. Turkistondagi maktab va madrasalarning faoliyati to'g'risida I.Alimov O'zining "Qo'qon xonligi madrasa va maktablari tarixi" nomli asarida milliy maorifning o'lka ma'naviy-madaniy hayotidagi o'rniga alohida ehtibor qaratilgan⁶.

Turkiston ijtimoiy-ma'naviy hayotida katta rol o'ynagan jadidlarning mahrifatparvarlik faoliyatiga bag'ishlab T.Qozoqov Farg'onada jadid maktablarining faoliyati to'g'risida qator maqolalalar chop ettirgan.

Xulosamiz shuki, chorizm va sho'ro hukmronligi davrida maktab va madrasalar milliy maorifga xolisona baho berilmagan. Sho'ro davlatining madrasa va eski maktablarga nisbatan olib borilgan siyosati salbiy oqibatlarni jumladan, o'zbek xalqi oktyabr to'ntarishidan so'ng yanada savodsizligini keltirib chiqargan kabi fikr tug'iladi. O'zbekistonda eski maktab, madrasalarning tugatilishi aslida ruslashtirish siyosatining bir qismi hamda milliy qadriyatlarni tugatishga qaratilgan ochiqdan-ochiq qat'iy choralarining namunasidir.

⁴ Rajabov S. O'zbekistonda sovet maktabi tarixiga doir. -T.: O'z SSR O'quvpeddavnashr, 1957; Ochilov M. O'zbekiston komsomolining umumiy-majburiy tahlil uchun kurashi (1930-1941 yy).-T.: O'zdavnashr, 1958.

⁵O'zbekiston SSR tarixi. 2 tom. -T.: O'z SSR FA , 1958.T.1.-B.529.

⁶Qarang. Alimov I. Qo'qon xonligi madrasa va maktablari tarixi. T.: Fan, 2017.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Asarlar IV jild.-Toshkent: O'zbekiston, 2020y.
2. Лыкошин Н.С. История культуры в мусульманской школе // Просвещение. 1918. 10 сентябр; Унинг ўзи. На пути к новой школе и жизни // Просвещение. 1918. 11 сентябр.
3. Сербов П.И. Общая характеристика начального образования в Туркестане // Наука и просвещение.-Ташкент, 1922.-№ 2.
4. Juraev N.T.. "RUSSIA'S EDUCATIONAL POLICY IN TURKESTAN" Экономика и социум, no. 3 (70), 2020, pp. 53-56.
5. Rajabov S. O'zbekistonda sovet maktabi tarixiga doir. -T.: O'z SSR O'quvpeddavnashr, 1957y; Ochilov M. O'zbekiston komsomolining umumiy-majburiy tahlil uchun kurashi (1930-1941 yy).-T.: O'zdavnashr, 1958y.
6. Jo'rayev, X. "'Turkistan collection' is an important resource in studying the history of the policy of the Russian Empire's population migration to Turkistan." Scientific journal of the Fergana State University 2.4 (2019): 94-97.
7. O'zbekiston SSR tarixi. 2 tom. -T.: O'z SSR FA , 1958y.T.1.
8. Alimov I. Qo'qon xonligi madrasa va maktablari tarixi. T.: Fan, 2017y.
9. Abdumuxtorov Muslimbek Abdullajon o'g'li, & Zokirov Zohidjon Toxirjon o'g'li. (2025). KORRUPSIYA - TARAQQIYOT KUSHANDASI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 73(2), 141-144. <https://scientific-jl.com/new/article/view/6452>
10. Adashaliyev A.Z.. "ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI BOJXONA SIYOSATI VA UNING TASHQI SAVDO RIVOJLANISHIGA TA'SIRI" Экономика и социум, no. 10 (113)-2, 2023, pp. 15-20.

11. Zokirov Z. XORIYIY MANBALARIDA MO 'G 'UL ULUSLARIGA
OID MA'LUMOTLAR (PLANO KARPINI, MA'LUMOTLARI ASOSIDA)
//Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 27. – С. 45-47.

12. Adashaliyev Azizbek Zafarjon o'g'li. «ALEKSANDR BYORNS
BOSHCHILIGIDAGI INGLIZ EKSPEDITSIYASINI TASHKIL ETILISHI
SABABLARI VA O'RTA OSIYOGA SAYOHATI». Журнал научных
исследований и их решений, т. 4, вып. 02, апрель 2025 г., сс. 164-9,
<https://inlibrary.uz/index.php/ituy/article/view/82647>.

13. Zafarjon o'g'li, Adashaliyev Azizbek. "XIX ASRNING 60-
YILLARIDA INGLIZ-RUS MUNOSABATLARIDA HERMAN VAMBERI
ESKPEDITSIYASINING AHAMIYATI." *InnoRes* 1.1 (2025): 98-105.